

## Manzarali ko'p yillik o'simliklar tasnifi

*Jumayeva Dilnoza Abdusattor qizi*


*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Biologiya (turlari bo'yicha) yo'nalishi talabasi  
jumayevad34@gmail.com*

**Kalit so'zlar:** urug', barg, meva, ko'sakcha, gul, xilma-xil, poya, o't, ko'p yillik, rang barang, yetishtirish, to'pgul, xushbo'y, qizil atirgul, kaktus, tikonlar, xlorofitum, ildiz bachkilari, gulkosacha, gultojlar, yukka, guldasta.

**Annotasiya:** Ko'p yillik o'simliklar ikki va undan ortiq yashaydigan o'simliklar guruhi bo'lib, ularning yerostki qismi ya'ni ildiz poyasi qishda saqlanib qoladi, yerustki qismi esa qishda nobud bo'ladi. Ko'p yillik manzarali o'simliklar gulli manzara hosil qilishda muhim ahamiyatga egadir. Ko'p yillik manzarali, madaniylashtirilgan o'simliklarga kaktuslar, atirgullar, yukkalar, xlorofitumlar kiradi.

**Ko'p yillik o'simliklar** -ikki yildan ortiq yashay oladigan o'simliklar guruhidir. Yer shari florasining ko'pchiligi ko'p yillik o'simliklar kiradi. Ko'p yillik manzarali o'simliklar gulli manzara hosil qilishda muhim ahamiyatga egadir. O'simliklarning yer usti qismi har yili qishda nobud bo'ladi, ildizi yoki ildiz poyasi saqlanib qoladi. Bahorda esa undan yangi poyalar o'sib chiqadi. Ko'p yillik o'simliklar tashqi ko'rinishi va biologik xususiyatlari bilan juda xilma-xildir.

**Kaktuslar(Cactaceae)**-kaktusdoshlarga mansub ko'p yillik semiz poyali o'simliklar, manzarali va uy o'simligidir. Kaktusdoshlarning tabiatda va inson hayotida ahamiyati katta.Ularning manzarali o'simliklar sifatida ekiladigan 300 dan ko'proq turlari bor.



### **Kaktus**

Kaktuslar orasida daraxtsimon, butasimon yoki liana hayotiy shakllari bor. Ularning deyarli hammasi Amerika (yarmi Meksika)da tarqalgan. Yovvoyi holda tropik va subtropik cho'llarda, dengiz bo'yolari, savannalarda o'sadi. Kaktus bir necha guruhlariga bo'linadi: opunsiyalar — dumaloq yoki ovalsimon yassi, bir-biriga birikib o'sgan tanadan iborat; syeryeuslar—tanasi yo'g'on, ustunsimon, etdor; mamillyariyalar—so'rg'ichsimon, chiroyli gullaydi; epifillyumlar—poyasi tasmaimon yassi; ripsalislar — juda sershox, xivchinsimon yoki bargsimon ko'rinishda bo'ladi. Ko'pgina turlari chiroyli



gullaydi, janubiy mintaqalarda ochiq joylarda manzarali o'simlik sifatida o'stiriladi. Kaktusning mevasi va poyasi eti ovqatga ishlatiladi, chorva mollariga ozuqa; o'tin va yengil qurilish materiali sifatida ham foydaniladi. Kaktus urug'i, qalamchasidan va payvand qilish yo'li bilan ko'paytiriladi. Maysalari urug'i ekilganidan keyin 5—28 kunda paydo bo'ladi, payvandlash may—avgustda o'tkaziladi. Kaktus erta bahordan kuzgacha (ayrim turlari qishda ham) gullaydi. Qishda kaktus uyda 8—10° da saqlanadi, kam sug'oriladi. Yozda kaktus ekilgan tuvaklar quyosh nuri tushadigan yorug' va issiq joylarga ko'chiriladi, tez-tez sug'oriladi va tanasiga suv purkab ("cho'miltirib") turish kerak.

Eng yirik manzarali kaktuslarga *Cereus giganteus* misol bo'ladi. Yirik gulli sereus (*Cereus grandiflorus*) „tun malikasi“ ning yirik sariq gullari tunda ochiladi va yoqimli vanil hidini tarqatadi. Kaktuslar oilasi Chinnigulnamolar qabilasining Ayzoadoshlar (*Aizoaceae*) va Semizo'tdoshlar (*Portulacaceae*) oilalariga yaqin turadi. Xallir, Vettshteyn, Golenkin, Taxtadjyan sistemalarida ham bu yaqinlik e'tirof etilgan.

**Atirgul (Rosa)** – ra'nodoshlar turkumiga mansub xushmanzara o'simlik sifatida ekiladi. Bu turkumning yovvoyi holda o'sadigan turlari xalqda ra'no, na'matak, qirq og'ayniva itburun nomlari bilan nomlanadi. Yer yuzida bu turkumning 250 ta turi, 25 mingta dan ortiq navi bor. O'zbekistonda esa atirgulning 19 turi, 600 dan ortiq navi o'stiriladi va bu navlar gulining katta-kichikligi, rangi, hidi, poyada o'rnavishi, gullash davri, poyaning tikka yoki ilashib o'sishi kabi xususiyatlari bilan farq qiladi.



### **Atirgul**

Atirgulni payvand qilib, parxishlab va qalamchasini ekish orqali ko'paytiriladi. O'zbekiston sharoitida Atirgul ochiq yerlarda apreldan noyabrning oxirigacha ochilib turadi, issiqxonalarda yil bo'yi gul olish mumkin. Asosan guldastalar yasash uchun o'stiriladi. Fransiya, Bolgariya, Turkiya, Italiya va boshqa mamlakatlarda ayrim turlari (damashq, fransuz va boshqalar) navlaridan qimmatbaho efir moyi olinadi. Osiyo, Yevropa, Amerika mamlakatlarida keng tarqalgan.

Atirgul navlari: 1–Montezuma; 2–Loriya Dey; 3–Marella; 4–Papa Meyyan

**Yukka (Yucca)** — agavadoshlar oilasiga mansub bo'lib, turkumda 30 tur kiritilgan. Yukka turlari doim yashil manzarali o'simliklar bo'lib, Shimoliy va Markaziy Amerika o'rmonlarda keng tarqalgan.





### *Manzarali yukka*

Uning asosiy poyasi bo'lmaydi, asosidan o'sib chiqqan qilichsimon poyalari bo'lib, gullash davrida ular o'rtasidan tik generativ novda rivojlanadi va may oyida ular manzarali gullaydilar. Markaziy Osiyoga introduksiya qilinganiga 120 yildan oshib ketdi. Ba'zi yukka turlarida urug'lari shakllanmaydi, buning asosiy sababi ularni vatanida gullarini changlaydigan kapalak turini mavjudligidir. O'zbekistonda yukkaning tanho changlanadigan turi - aloesimon yukka ko'plab urug' beradi.

Ko'kalamzorlashtirish uchun keng qo'llaniladigan turi - ipsimon yukka hisoblanadi. Ipsimon yukkaning balandligi 1 metrgacha bo'lgan ko'p poyali doim yashil o'simlik. Gullovchi tik poyasi balandligi 2 metrgacha, gullari qo'ng'iroqsimon, oq-sariq. Mayda gullaydi, oktyabrda qayta gullashi kuzatiladi. Mevasi dumaloq ko'sakcha, 5 sm diametrga ega. Bu turdan urug' olish uchun uni sun'iy changlantirish lozim. Sovuqqa chidamli, asosan urug'lari, tupini bo'lish, ildiz bachkilari yordamida va ildiz qalamchalari yordamida ko'paytiriladi. Yukka o'simligi juda manzarali, shu sababli guruh holatida ekiladi.

**Xlorofitum (Chlorophytum)**- Xlorofitum Amerika va Janubiy Afrikaning tropik va subtropik o'rmonlaridan kelib chiqqan. Xlorofitumning juda ko'p turlari bor. Chlorophytum comosum ushbu tur juda yaxshi va tez ko'payishi bilan ajralib turadi. Ushbu turning bir qator manzarali shakllari ham mavjud: Chlorophytum comosum vittatum - barglarining o'rtasida hosil qiladigan bir nechta oq chiziqlari bilan ajralib turadi, Chlorophytum comosum bonnie- jingalak bargli xlorofitum hisoblanadi.



### *Xlorofitum o'simligi.*

Xlorofitum o'simligi o'stirish uchun alohida e'tibor talab qilmaydi. Shuning uchun uni o'stirish qiyin emas. Uzoq vaqt quyoshsiz yashashi mumkin. O'simlik barglari uzun yashil bo'ylama chiziq bilan



qoplangan holda o'suvchi manzarali xona o'simligi. Xlorofitumni tupini ikkiga bo'lish yo'li bilan ko'paytirish eng samarali usul hisoblanadi. Tuproqqa ekilgach juda tez ildiz rivojlanib ketadi. O'simlikdan chiqadigan bir muncha uzun shoxchalar ham yaxshi sharoitda tez ildiz chiqarib alohida o'simlik holatiga keladi. Xlorofitum havoni juda yaxshi tozalovchi sifatida juda qadrlanadi.

***Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati;***

1. O'. Pratorov, L. Shamsuliyeva, E. Sulaymonov, X. Axunov, K. Ibodov, V. Mahmudov, Botanika ( morfologiya, anatomiya, sistematika, geobotanika) Toshkeny.
2. Botanika (o'quv qo'llanma). Toshkent 2018.
3. Tursunova Gulbahor Sultanova, Komilova Shoiri Rafiqova Botanika asoslari ( o'quv qo'llanma). Toshkent 2009.
4. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
5. X. Haydarov, Y. Tashpulatov, X. Jalov, I. Mukumov (Yuksak o'simliklar) darslik Samarqand-2019
6. E. Berdiyev, Sh. Gulamxodjayeva Manzarali daraxtlarni ko'paytirish. O'quv qo'llanma Toshkent-2020. 2
7. Islomov B.S., Hasanov M.A., Botanika. Darslik.- Samarqand: SamDU nashriyoti, 2020- yil

